



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 118-124 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KICHIK BIZNESDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALAR JORIY ETISHNING HOLATINI TAHLIL QILISH



Rizayeva Nilufar Oblakulovna

TDIU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MBA Kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishi tinglovchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznesda raqamli platformalar -elektron tijorat saytlari, marketpleyslar va mobil ilovalar joriy etishning holatini tahlil qilish natilari yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va O'zbekistonda bugungi kunda elektron tijorat holati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, raqamli platformalar, elektron tijorat, elektron tijorat saytlari, marketpleyslar, mobil ilovalar

**Аннотация.** В данной статье освещены результаты анализа состояния внедрения цифровых платформ – сайтов электронной коммерции, маркетплейсов и мобильных приложений на предприятиях малого бизнеса. Изучен опыт развитых стран и проанализировано состояние электронной коммерции в Узбекистане на сегодняшний день.

**Ключевые слова.** Цифровая экономика, малый бизнес, цифровые платформы, электронная коммерция, сайты электронной коммерции, маркетплейсы, мобильные приложения

**Annotation.** This article highlights the results of an analysis of the state of implementation of digital platforms - e-commerce sites, marketplaces and mobile applications in small businesses. The experience of developed countries has been studied and the state of e-commerce in Uzbekistan today has been analyzed.

**Key words.** Digital economy, small business, digital platforms, e-commerce, e-commerce sites, marketplaces, mobile applications

#### KIRISH

Kichik biznes uchun raqamli platformalarni joriy etishning bugungi holati raqamli transformatsiya va texnologiyalarni keng qo'llash natijasida sezilarli rivojlanish bosqichida.

Hozirgi kunda kichik biznesda raqamli platformalar quyidagi yo'nalishlarda joriy etilmoqda:

- Elektron tijorat saytlari: Mahsulotlarni onlayn savdoga chiqarish va turli xizmatlarni ko'rsatish uchun platformalar.
- Marketpleyslar: Tayyor savdo maydonchalaridan foydalanish, masalan, Amazon, Wildberries yoki mahalliy platformalar.
- Mobil ilovalar: Kichik biznesning mijozlar bilan yaqinroq ishlashi uchun qulay vosita.

O'zbekistonda elektron tijorat hajmi so'nggi yillarda ortib bormoqda, lekin xalqaro bozorlarga chiqish hali cheklangan. Mahalliy marketpleyslar (Uzum Market, Wildberries) kichik biznes egalari uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Mobil ilovalar yaratish va ulardan foydalanish faqat yirik brendlar orasida rivojlanmoqda, kichik biznes bu sohada hali faol emas. KPMG xalqaro auditorlik kompaniyasi O'zbekistondagi elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravarga kengayishini prognoz qildi. Kompaniya o'z hisobotida bozorning kengayishiga ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni sanab o'tdi.

O'zbekiston chakana savdo bozori 2022 yil 31-dekabr holatiga 14 mlrd dollarga baholandi. 2027-yil yakunigacha bu ko'rsatkich 19,6 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Elektron savdo bozori 2022-yil 31-dekabr holatiga jami chakana savdo bozorining 2,2 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2027-yil yakunlariga borib 9 foizdan 11 foizgacha oraliqda shakllanishi kutilmoqda. Ya'ni 1,8–2,2 mlrd dollar bo'lishi, o'sish tempi 2022–2027-yillar davomida 41,4–47,4 oralig'ida bo'lishi prognoz qilingan.

Mamlakat aholisi 36 mln 372 ming nafarni (2023-yil 1-iyul) tashkil etadi va aholining 40 foizi – 14 mln 393 ming nafari 15–39 yoshda. Mamlakatdagi odamlarning 23 mln 533 ming nafari internetdan foydalanadi. Aholi orasida bank xizmatlari qamrovi 49 foizni, internet qamrovi 77 foizni tashkil etmoqda<sup>1</sup>.

#### **USULLAR.**

Ushbu maqola da rivojlangan mamlakatlar hamda O'zbekistonda kichik biznes uchun raqamli platformalarni joriy etishning bugungi holati raqamli transformatsiya va texnologiyalarni keng qo'llash natijasi qiyosiy tahlili, ma'lumotlar guruhlash, jamlash usullaridan foydalanildi.

#### **TAHLIL.**

Kichiki biznesda elektron tijorat saytlaridan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochib beradi, jumladan, kengroq auditoriyaga yetib borish, savdo hajmini oshirish va biznesni avtomatlashtirish. Ushbu tahlilda elektron tijorat saytlari joriy etilishining ahamiyati, afzalliklari, mavjud muammolari va rivojlanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Xitoydagi eng yirik kompaniyalardan biri – Alibaba Group ning asoschisi va direktorlar kengashi raisi Djek Maning ta'kidlashicha, «Taxminan 30 yillardan so'ng, biznesning 80% dan ortigi internet orqali amalga oshiriladi Agar bu paytga kelib, ertangi kun uchun qandaydir yechimingiz bo'lmasa, bu yechim kimdadir albatta bo'ladi». Xaqiqatan xam, bugungi

<sup>1</sup> Bahodir A. O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi kutilmoqda – KPMG // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>

kunda informatsion va kommunikatsion texnologiyalar xayotimizning barcha soxalariga shiddat bilan kirib kelmoqda<sup>2</sup>.

Bugungi kunda elektron tijorat saytlari joriy etilishining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- Bozor chegaralarini kengaytirish: Elektron tijorat orqali kichik biznes mahalliy va xalqaro auditoriyaga xizmat ko'rsatishi mumkin.
- Ish jarayonlarini avtomatlashtirish: Buyurtmalarni boshqarish, to'lovlarni qabul qilish va yetkazib berishni tashkil qilish jarayonlari soddalashtiriladi.
- Ma'lumotlardan foydalanish: Saytdagi xaridorlar faoliyati asosida marketing strategiyalarini takomillashtirish imkoniyati.

2022-yil aprel oyida amazon.com eng ko'p tashrif buyuriladigan elektron tijorat va xaridlar veb-saytiga aylanadi. Foydalanuvchilar saytga o'rtacha olti daqiqa vaqt sarflashadi va ular har bir tashrifda 8,78 sahifani ko'rishadi. Bitta sahifani o'qib chiqib saytni tark etgan tashrif buyuruvchilar foiziga kelsak, Amazonning chiqish darajasi 35,77 foizni tashkil qiladi. Ro'yxatda yana ikkita sayt bor, eBay va Amazon.com eBay.com saytiga o'rtacha tashrif vaqti olti daqiqa, har bir tashrif uchun o'rtacha sahifalar soni 6,75 va chiqish tezligi 37,23 foizni tashkil qiladi<sup>3</sup>.

Elektron tijorat saytlari joriy etilishining hozirgi holati haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbekistonda joriy bozor holatiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda elektron tijorat hajmi o'sishda davom etmoqda. Kichik bizneslar o'z mahsulot va xizmatlarini onlayn savdoga qo'yishni boshladi.

Amaldagi platformalar: Kichik bizneslar ko'proq tayyor tizimlardan (Shopify, WooCommerce) foydalanmoqda yoki mahalliy platformalar (Uzum Market) orqali ishlamoqda. Mobil to'lov tizimlari (Click, Payme) elektron tijorat rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Elektron tijorat orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi yiliga o'rtacha 20-25% ga oshmoqda. Kichik bizneslar uchun elektron tijoratdan foydalanish ko'rsatkichi hali past darajada bo'lib, asosan yirik shaharlarda rivojlangan. Marketpleyslar kichik biznes uchun zamonaviy raqamli savdo platformasi bo'lib, ular mahsulot va xizmatlarni kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Quyida kichik biznesda marketpleyslarni joriy etishning hozirgi holati, afzalliklari, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Elektron pochta orqali elektron tijorat statistikasi ni kuzatadigan bo'lsak, iste'molchilarning 61 foizi elektron brendlar bilan pochta orqali bog'lanishni afzal ko'rishadi. Elektron pochta marketingi investitsiya rentabelligi (ROI) 4400 foizga teng, ya'ni sarflangan har bir dollar 44 dollar olib keladi. AQShdagi 1000 ta eng yirik onlayn Internet do'konlarining 58 foizi "xush kelibsiz" elektron pochta xabarlarini yuboradi. Mobil elektron tijorat statistikasini kuzatadigan bo'lsak, hozirda barcha bayram xaridlarining 40 foizdan ortig'i mobil qurilmalarda amalga oshiriladi. Qo'shma Shtatlardagi Internet foydalanuvchilari rining 82 foizi onlayn xarid qilish uchun mobil qurilmalardan foydalangan. Smartfon va planshet egala rining 53 foizi korporativ dasturlar orqali xarid qiladi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, B.471.

<sup>3</sup> Sh.Tuychiyev. Eng yaxshi rivojlangan elektron savdo kompaniyasi tajribasini o'rganishni tahlil qilish. // Science and innovation Journal. Vol.1. Issue. 5. 2022. B.18.

<sup>4</sup> G.Mahmudova. Raqamli Iqtisodiyot va unda elektron tijoratning o'rni. // Raqamli iqtisodiyot. Moliyachi ma'lumotnomasi. O'zMU, 11 (119) 2021. B.8.

Elektron tijorat platformalarining afzalliklari quyidagilar:

- Keng ko'lamdagi auditoriya: Mahsulot va xizmatlar global darajada xaridorlarga taqdim etiladi.
- Oson boshqaruv: Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt tahlillari.
- Samaradorlik: Savdo hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish.
- Marketpleyslar.
- Qulay infrastrukturaga ega bo'lish: Logistika, to'lov tizimlari va reklama xizmatlari allaqachon tashkil etilgan.
- Tezkor ish boshlash: Tayyor platforma orqali savdoni boshlash imkoniyati.
- Mobil ilovalar.
- Shaxsiylashtirish: Mijozlar uchun maxsus xizmat va chegirmalar taqdim etish imkoniyati.
- Brend sadoqatini oshirish: Mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish<sup>5</sup>.

Shuningdek bugungi kunda ushbu sohada bir qator muammolar va cheklovlar yuzaga kelmoqda.

- Texnik va infratuzilma masalalar.
- Ko'p kichik biznes egalarining texnologik bilim va ko'nikmalari yetarli emas.
- Internetga ulanish sifati va infratuzilma ayrim hududlarda past darajada.
- Moliyaviy cheklovlar.
- Elektron tijorat saytlari yaratish yoki mobil ilovalar ishlab chiqish uchun yuqori dastlabki xarajatlar.
- Marketpleyslarning komissiyalari kichik biznes foydasini qisqartiradi.

Raqobat masalalari

- Mahalliy va xalqaro platformalardagi yuqori raqobat kichik biznesga qiyinchilik tug'diradi.
- Brendning taniqliligini oshirish uchun qo'shimcha resurslar talab etiladi.
- Kichik biznesda raqamli platformalarni joriy etishning rivojlanish imkoniyatlari quyidagilar:
- Raqamli transformatsiyaga o'tish
- Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.
- Mahalliy platformalarga subsidiyalar ajratish va soliqlarda imtiyozlar yaratish.
- Talim va treninglar
- Raqamli savodxonlikni oshirish uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish.
- Elektron tijorat, marketpleyslardan foydalanish va mobil ilovalar yaratish bo'yicha treninglar o'tkazish.
- Texnologik imkoniyatlarni oshirish
- Bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida kichik biznes uchun arzon echimlarni taklif qilish.
- Mobil to'lov tizimlarini ommalashtirish (masalan, Click, Payme).

<sup>5</sup> M.Ravshanova. Elektron tijorat tushunchasi va ushbu sohani O'zbekistonda rivojlantirishning ahamiyati. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), May, 2023. P.417.

Kichik biznesda raqamli platformalarni joriy etishning tahlili bo'yicha bir qator tavsiyalar mavjud:

- Davlat va xususiy sektor hamkorligi
- Elektron tijoratni rivojlantirish uchun davlat tomonidan grantlar va kreditlar ajratish.
- Mahalliy platformalar (Uzum, Imkon.uz) ni xalqaro standartlarga moslashtirish.
- Kichik biznes uchun arzon echimlar
- Tayyor shablonlar asosida sayt va mobil ilovalar yaratish xizmatlarini kengaytirish.
- Marketpleyslar uchun kichik biznesga mo'ljallangan imtiyozli paketlarni joriy etish.
- Innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash
- Yosh dasturchilar va tadbirkorlarni birlashtiruvchi inkubatorlar tashkil etish.
- Yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun tajriba maydonchalarini yaratish.

Marketpleys — bu bir nechta sotuvchilar va xaridorlarni birlashtiruvchi onlayn savdo platformasi. Sotuvchilar o'z mahsulot va xizmatlarini ushbu platformada joylashtiradi, xaridorlar esa o'ziga kerakli tovarlarni tanlab xarid qiladi.

Kichik biznes uchun ahamiyati:

- Raqobatbardoshlikni oshirish: Marketpleyslar kichik bizneslarga yirik kompaniyalar bilan bir maydonda raqobatlashish imkonini beradi.
- Savdo xarajatlarini kamaytirish: Tayyor infrastrukturadan foydalanish xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi.
- Bozorga tez kirish: Mahsulotlarni joylashtirish orqali tezkor savdo qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekistonda marketpleyslardan foydalanish rivojlanmoqda. Mashhur platformalar: Uzum, Wildberries, Olx kabi mahalliy va xalqaro platformalar kichik biznes tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar: Marketpleyslar orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshmoqda. Foydalanuvchilar: Mahsulotlarni onlayn xarid qiluvchi iste'molchilar soni yiliga o'rtacha 15–20% ga ko'paymoqda.

Ko'plab kichik biznes vakillari mahalliy marketpleyslarda o'z mahsulotlarini joylashtirishni boshlagan. Bunda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, texnika va maishiy buyumlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Shopify – bu eng mashhur elektron tijorat saytlarini yaratish texnologiyasi bo'lib, bozor ulushi 15% dan oshadi va undan 4 millionga yaqin sayt foydalanadi. Elektron tijorat ite'molchilari o'rtasida, Internet maydonida nima uchun elektron tijorat saytlari orqali onlayn xarid qilasiz degan so'rov o'tkazilganda, respondentlar bu savolga quyidagicha javob berishdi, iste'molchilarning yarmidan ko'pi (50,7%) bu elektron tijorat do'konlari tomonidan taklif qilinadigan bepul yetkazib berish ekanligini aytishdi<sup>6</sup>.

Kichik biznesda marketpleyslarni joriy etish bo'yicha quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:

- Marketpleysda joylashishdan oldin o'z mahsulotlarini raqobatbardosh qilish.
- Marketing strategiyalarini kuchaytirish va mijozlarga qiziqarli xizmatlarni taklif qilish.

<sup>6</sup> D.Xakimjanova. Xorijiy davlatlarda elektron tijoratni rivojlantirish tendensiyalari. // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali | 6-son. B.199.

- Davlat va xususiy sektor uchun:
  - Mahalliy marketpleyslarni qo'llab-quvvatlash.
  - Marketpleyslarda kichik biznes uchun maxsus imtiyozlar yaratish.
  - Platforma egalariga kichik biznes uchun moslashuvchan va arzon xizmat paketlarini taklif qilish.
  - Platforma ichida sotuvchilar uchun trening va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish.
- AQSH olimlari A. Summer va Gr.Duncan fikricha elektron savdo – biznes tranzaksiyasining butun sikli yoki uning bir qismi elektron tarzda amalga

oshadigan tovar yoki xizmatlarni xarid qilish va sotish jarayonidir<sup>7</sup>.

Shuningdek, bugungi kunda mobil ilovalar kichik biznesni raqamli transformatsiya qilishda muhim vosita bo'lib, mijozlar bilan yaqin aloqada bo'lish va xizmatlarni soddalashtirish imkonini beradi. Quyida kichik biznesda mobil ilovalarni joriy etishning holati, afzalliklari, muammolari va rivojlanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Mobil ilovalar va ularning kichik biznes uchun ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Mobil ilovalar kichik biznesning operatsion samaradorligini oshiradi va mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Asosiy vazifalari:
- Xizmatlarni shaxsiylashtirish: Har bir mijozga mos keladigan xizmat va mahsulotlarni taklif qilish.
- Tezkor aloqa: Xaridorlar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish.
- Savdo jarayonlarini soddalashtirish: Xarid qilishni osonlashtiruvchi interfeys va to'lov tizimlari integratsiyasi.

## XULOSA

Kichik biznesda mobil ilovalar joriy etilishining hozirgi holati. Global ko'rinish: 2024-yilda kichik biznes egalari orasida mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish 30% ga oshgani kuzatilmoqda. Ilovalar orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi yiliga o'rtacha 25-30% ga ko'paymoqda. O'zbekiston misolida mobil ilovalar kichik biznes sohasida yangi rivojlanayotgan yo'nalish bo'lib, u asosan quyidagi tarmoqlarda ishlatilmoqda:

- Oziq-ovqat yetkazib berish (masalan, MyTaxi Food, Express24).
- Savdo va xizmat ko'rsatish (Uzum, Payme integratsiyali ilovalar). Aholining smartfonlardan faol foydalanishi kichik biznesni mobil platformalarga ko'chishga rag'batlantirmoqda.

Statistik ko'rsatkichlar: Mahalliy kichik bizneslarning 15-20% atrofida o'z mobil ilovasiga ega. Mobil ilovalar orqali olingan buyurtmalar umumiy savdoning 10-15% ni tashkil etadi.

Jilin, Safaryanlarning (2020) tadqiqotlarida bugungi kunda kompaniyalarning 37 foizi algoritmik xizmatlar va elektron tijorat texnologiyalaridan foydalanishi, bu kelajakda yangi yuqori intellektli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari doimiy ravishda oshib borishidan dalolat berishi yoritib o'tilgan<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Uzbek Scholar Journal Volume- 21, October, 2023 www.uzbekscholar.com. O'zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

<sup>8</sup> D.Pulatxujayeva. Xalqaro savdoda elektron tijoratning ahamiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal. V son - may, 2024. B.240.

Elektron tijoratning rivojlanishi O'zbekiston mehnat bozori strukturasi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi. O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi. Elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishini, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o'z aksini topadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahodir A. O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi kutilmoqda — KPMG // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>
2. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDFPU, 2020, B.471.
3. Sh. Tuychiyev. Eng yaxshi rivojlangan elektron savdo kompaniyasi tajribasini o'rganishni tahlil qilish. // Science and innovation Journal. Vol.1. Issue. 5. 2022. B.18.
4. G. Mahmudova. Raqamli Iqtisodiyot va unda elektron tijoratning o'rni. // Raqamli iqtisodiyot. Moliyachi ma'lumotnomasi. O'ZMU, 11 (119) 2021. B.8.
5. M. Ravshanova. Elektron tijorat tushunchasi va ushbu sohani O'zbekistonda rivojlantirishning ahamiyati. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), May, 2023. P.417.
6. D. Xakimjanova. Xorijiy davlatlarda elektron tijoratni rivojlantirish tendensiyalari. // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali | 6-son. B.199.
7. Uzbek Scholar Journal Volume- 21, October, 2023 [www.uzbekscholar.com](http://www.uzbekscholar.com). O'zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
8. D. Pulatxujayeva. Xalqaro savdoda elektron tijoratning ahamiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal. V son - may, 2024. B.240.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

